

va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il va qizlarni 6 yoshdan tarbiyalashga muallimga berish lozimligini aytadi. Ana shu yoshlar ilk yoshidayoq fanlarni va xunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy pedagog-mudarris. U ta'lim- tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davrida musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. U o'qituvchi haqida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini ham, o'zi ta'lim berayotgan fanni ham sevgan bo'lishi zarur, deydi. O'ziga ham o'quvchiga ham talabchan bo'lishni uqtiradi [2]. Alisher Navoiy odobli inson barcha odamlarning yaxshisi ekanligini, u mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, gozal ko'ngilni ochadi, xunuk hayotni o'ksitadi, yaxshi xulqli go'zal – jannat huridir, yomon tabiatli xunuk- do'zaxbon devdir. Navoiy go'zallikni, nafis san'atni yuksak qadrlab, nafis san'at inson ma'naviy olami, kamoli uchun kalit ekanligini ta'kidlaydi [4].

Turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o'ziga xos qaytarilmas fikrlar sohibi buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning o'rni va ahamiyati nafaqat sharq xalqlari, balki ilg'or taraqqiyparvar omillari uchun bebahodir. Uning "Mahbub-ul-qulub" asari buyuk allomaning maishiy turmush, odob, tarbiya muammolariga bag'ishlangan yirik risoladir. Navoiy bu asarida butun hayoti davomida ko'rgan, bilgan yutuqlar, oddiy xalqning turmush tarzi, fe'l-atvorlari, ruhiy hayoti, urf-odatlarini, yaxshi va yomon xislatlari bo'yicha to'plagan kuzatishlarini bayon etadi.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular "Nasihatnoma", "Pandnoma", "Hikmatnoma" tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbalarda yoshlarni hayotga tayyorlashda, ularga birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oila muqaddas, uni avaylab-asrash haqida ibratli fikrlar bugungi kun yo'slari uchun dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida turli xil innavatsion metodlar yordamida o'quvchilarni fanga oid bilimlarini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 537 bet
2. Iskandarov I. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti 1995. – 17-bet.
3. Shoumarov G.B. Oila psixologiyasi –T."Sharq", 2013. – 16-17 betlar.
4. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. Estetika asoslari. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2010. – B. 24-26.

XORIJ DAVLATLARIDA PEDAGOGIK TESTLASH JARAYONINING RIVOJLANISH TARIXI

Xudaynazarova K.Sh., TDPU, O'zbekiston

Annotatsiya: mazkur ishda xorij davlatlarida pedagogik testlash jarayonining rivojlanish tarixi yoritib o'tilgan bo'lib, unda xorij davlatlarida pedagoglarning testlash jarayonidan voz kechilishi va yana qayta qabul qilinishi bilan bog'liq jarayonlar yillar kesimida keltirilgan.

Kalir so'zlar: pedagogika, testlash, pedagogik o'lchov, IQ.

Pedagogik testlash jarayonlari davlatdagi ilmiy salohiyatni belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanib, unga e'tibor o'ta muhim hamda doimiy amalga oshirilishi ta'minlanishi kerak bo'lgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Avvalambor pedagogik testlash jarayonlari tarixiga e'tibor qaratilsa, nisbatan yaqin va uzviy bog'liq davlatni o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday davlat albatta Rossiya Federatsiyasi hisoblanadi.

Pedagogik testlashlar tarixi Rossiyada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida boshlangan. Bu davrda eksperimental pedagogika tarafdorlari tomonidan testlardan keng foydalanilgan [1]. 1936-yilda Sovet Ittifoq Bolsheviklar Kommunistik partiyasi "RSFSR Xalq Maorif Komissarligi tizimidagi pedagogik buzilishlar to'g'risida" qaror qabul qilindi, unda test tizimi yopildi.

XX asrning 60-yillari boshlariga kelib, ko'plab o'qituvchilar o'quv jarayonining sifati haqida qayg'urib, nazorat qilish uchun test shaklida topshiriqlar to'plamidan foydalanishni boshlagandi [2].

XX asrning 60-yillaridan 80-yillarning boshlarigacha test jarayonini o'rganishga urinishlar bo'ldi va o'qituvchilarning tadqiqot ishlari paydo bo'ldi, unda testdan innovatsiyalar samaradorligini tasdiqlash vositasi sifatida foydalanildi.

XX asrning 80-yillari o'rtalariga kelib mamlakatda pedagogik o'lchovlar nazariyasining asosiy qoidalari o'qituvchilarning ilmiy-metodik ishlarida o'rnatila boshlandi.

1990-yillarning o'rtalariga kelib, o'qituvchilar ommaviy siyosiy qatag'on to'xtatilgan davrda sinovlarga qaytishdi. Bu davrda test masalalari bo'yicha ilmiy nashrlar, ta'limdagi testlarni qo'llab-quvvatlovchi va qoralovchi darslik hamda maqolalar paydo bo'ldi [2].

XX asrning 90-yillarida testlarni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha amaliy ishlar bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar ishlab chiqildi, ta'limda test masalalari bo'yicha ishlar paydo bo'ldi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, jurnallar, monografiyalar, darsliklar nashr etildi, simpoziumlar va konferentsiyalar o'tkazildi.

Ta'lim organlari va ta'lim muassasalarining testlarga bo'lgan munosabatida tub o'zgarishlar 2001-yilda Yagona davlat imtihonini joriy etish bo'yicha tajriba boshlanishi bilan sodir bo'ldi, buning natijasida testlar Rossiya Federatsiyasida rasmiy tan olindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda testlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish bo'yicha mutaxassislar jamoasi shakllangan bo'lib, test va o'lchashning psixologik-pedagogik muammolariga bag'ishlangan maxsus jurnallar katta hajmda nashr etilmoqda [2].

Xorijda pedagogik testlarning paydo bo'lishi ko'pincha fransuz psixologi va shifokori A.Vinening intellektual qobiliyatlarini diagnostika qilish bo'yicha ishlar bilan bog'liq. Ingliz tadqiqotchilari F.Galton va J.Kettellarning ilmiy muomalaga test sifatining o'ziga xos xususiyatini kiritish, uning o'lchanadigan o'zgaruvchiga ko'ra ob'ektlarni farqlash qobiliyatini ko'rsatishga hissa qo'shgan.

Nemis psixologi va faylasufi V.Shtern intellektni baholash uchun maxsus koeffitsient - IQ koeffitsientini taklif qildi. 1904-yilda ingliz tadqiqotchisi S.Snirman korrelyatsiya usullarini, jismoniy o'lchovlar nazariyasini va bolalarning qobiliyatlarini baholashda olimlar tomonidan to'plangan tajribani birlashtirgan holda testlar sifatini asoslashning ilmiy yondashuvlariga asos soldi. N.R.Kempbellning tadqiqot ishi pedagogik o'lchovlar nazariyasining ilmiy qoidalarining prototipiga aylandi, buning natijasida o'lchovlar sifatini tahlil qilish uchun nazariy apparat ishlab chiqildi [1].

Klassik test nazariyasiga asoslanib, XX asrning 30-40-yillarida test topshiriqlari sifatini tahlil qilishning miqdoriy usullari jadal ishlab chiqildi, ta'lim yutuqlarining

standartlashtirilgan testlari tuzildi, test natijalarini masshtablash usullari o'zlashtirildi. XX asrning 40-yillari oxirida turli maktab fanlari bo'yicha natijalarning mutanosibli va solishtirilishini ta'minlash uchun sinov testlari yaratildi. Bu davrda pedagogik o'lchovlar nazariyasida testlarni standartlashtirish uchun zarur bo'lgan reprezentativ namunalarni shakllantirish usullari keng ishlab chiqildi, ma'lumotlarning korrelyatsion, dispersiya va omilli tahlil usullari ishlab chiqila boshlandi, ma'lumotlarning ishonchliligini oshirishning samarali usullarini izlash boshlandi. sinov natijalari kuchaytirildi [2].

XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab o'lchovlarning ishonchliligini bashorat qilish, test samaradorligini oshirish va talabalar tayyorgarligi parametrlarini baholash usullari amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xorijda testlarni rivojlantirish tarixining o'rgangan holda hozirgi davr pedagogik o'lchash va uni qo'llash usullarining yangi modellarini yaratish, testlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasiga turli innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish bilan pedagogik testlash jarayonini yanada takomillashishida katta burilishlar hosil qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Рубцова Е.В. Пути совершенствования тестового контроля сформированности компетенций студентов ВУЗа // КНЖ. 2017. № 4 (21).
2. Сеногноева Н.А. Из истории развития понятия "педагогический тест" // БГЖ. 2018. № 3 (24).

ХУШМУОМАЛАЛИК КАТЕГОРИЯСИ МАКСИМАЛЛАРИНИ ИЖОБИЙ БАҲОЛАНИШИНING ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ

Адамбоева Н.Қ., ФарДУ кафедраси ўқитувчиси, O'zbekiston

Аннотация. Ушбу мақола хушмуомалалик категориясининг ижобий баҳоланишиши нутқий вазиятлардаги гаплар орқали очиб беради.

Калит сўзлар: ижобий хушмуомалалик, салбий хушмуомалалик, юз, миннатдорчилик билдирмоқ.

Тарих давомида инсоният томонидан тўпланган кўплаб қадриятлар умуминсонийдир. Бироқ, турли маданиятларда маълум қадриятларнинг аҳамияти, уларнинг қиймат миқёсидаги иерархияси ҳар хил. Айнан шу нарса ҳар бир маданиятнинг оригиналигини, унинг ўзига хослик ва уникал эканлигини белгилайди. Тил билан бирга маданий қадриятлар ва урф-одатларнинг умумийлиги ёки ўзига хослигини аксиологик баҳоланиши хушмуомалалик категорияси назариясининг энг муҳим хусусиятларидан биридир.

Ҳар қандай маданият ўзига хос қадриятлар тизимида асосланади, улар асосий ҳаётий кўрсатмалар бўлиб хизмат қилади ва пировардида маълум бир жамият маданиятини белгилайди. Масалан, Шарқ анъаналари жамият ва шахс бирлиги, оила, ота-она ва катталарга ҳурмат, шахснинг ўзини-ўзи камол топтириши, ўзаро боғлиқлик, шахслараро муносабатлардаги уйғунлик, камтарлик каби қадриятлар билан ажралиб туради. Ғарб анъаналари учун бу шахс ва жамиятнинг қарама-қаршилиги, шахсий қадриятларнинг жамоат қадриятларидан устунлиги, мустақиллик, шахс эркинлиги, тенглик ва бошқалар. Хушмуомалалик ижтимоий меъёр ёки кўрсатувчи ижтимоий "қоидалар" мажмуи сифатида тавсифланади. Илк бор бу қоидалар асосида Э.Хоффман "юз" (face), яъни мулоқот жараёнида вужудга келадиган ва бошқа одамлар томонидан баҳоланадиган ўзига